

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA MA'SULIYATNI SHAKLLANTIRISH

**Solijonova Dilafruz Vali qizi**

*Toshkent viloyati Chirchiq shahar 16-maktab psixologи.*

**Otepberganova Aygul Kidirbayevna**

*Toshkent viloyati Chirchiq shahar 16-maktab psixologи.*

**Toshtemirova Dilfuza Baxtiyorovna**

*Toshkent viloyati Chirchiq shahar 16-maktab MMIBDO'*

**Annotatsiya:** Maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ma'suliyatni shakllantirish orqali ularning asosiy faoliyati bo'lgan o'quv faoliyatiga va shaxsiy sifatlariga ijobjiy ta'siri haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Kichik maktab yoshi, o'quv faoliyati, ma'suliyat, o'qituvchi, mehnat, shaxsiy sifatlar.

### **KIRISH:**

Bugungi kunga kelib kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarning erkin fikrlovchi, barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ularning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarini o'rganilib, o'zlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashida to'siq bo'ladigan salbiy psixik holatlarni aniqlash hamda bartaraf etish lozimligiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Yoshlarni har tomonlama shakllantirishning dastlabki bosqichi bu kichik maktab yoshidir. Kichik maktab yoshi bu ijobjiy o'zgarishlar va yangilanishlar davridir. Shuning uchun ham rivojlanishning shu bosqichida har bir bola erishgan muvaffaqiyatlar darajasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Agar shu yoshda o'quvchi bilish, o'rganish quvonchini his etmasa, o'qish malakalarini egallay olmasa, do'stlashishni bilmasa o'ziga nisbatan, o'z imkoniyat va layoqatlariga nisbatan ma'suliyatli bo'la olmasa, bu ishlarni kelgusida amalga oshirish qiyinroq bo'lib, bolada ruhiy va jismoniy zo'riqishni talab etadi. Negaki, bu holatlar faqatgina yoshlarning bilim olishiga to'siq bo'lib qolmasdan, o'z navbatida shaxsning boshqa psixik jarayonlarning normal rivojlanishida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday salbiy holatlardan biri ma'suliyat tushunchasini shakllanmaslik holatidir.

### **ASOSIY QISM:**

Bolaning o'sishi, uning psixikasi va ongingina taraqqiyoti, jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishi muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Kichik maktab yoshi davri 1 -4 sinf o'quvchilarining yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davrda bola psi7xikasida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatish mumkin. Bolani birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan unda bir qator psixologik qiyinchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z xatti-harakatlarni aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi ularning xatti-harakatlarni baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi

mumkun.Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, ularning qoidalariga to'la amal qilishi orqali dastlabki ma'suliyat tushunchalari shakllana boshlaydi.

• Ma'suliyat –insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan ,odamning ichki dunyosi,irodasini baquvvat,iymon–e'tiqodini butun qiladigan,vijdonini uyg'otadigan beqiyos tushunchadir

Kichik mакtab davrida bolaning birinchi bor mакtab ostonasiga qadam qo'yishi unda o'quv faoliyati ma'suliyati hisoblanadi. O'quv faoliyati kichik mакtab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki, shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. . Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yetakchi bo'lган o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar-o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu faoliyatlar asosida muvafaqqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lган shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik mакtab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish extiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'llishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rин yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdangi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar.Ular uchun doimo birinchi bo'llish nihoyatda muhim. Kichik mакtab yoshidagi bolalar uchun mehnatning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Biroq shuni ta'kidlab o'tish lozimki, har qanday mehnat ham shaxsda ijtimoiy jihatdan qimmatli xislatlarini tarbiyalayvermaydi. Mehnat o'z shaxsiy manfaati uchun bajonudil va ko'p mehnat qilishga bo'lган xudbinni ham tarbiyalaydi. Bolalar o'z-o'ziga xizmat qilish va o'zlari uchun foydali bo'lган narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashga xususan zo'r e'tibor berish kerak. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarni sekin-asta ko'pchilik foydasiga qaratilgan, boshqalar uchun bo'lган ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish juda muhimdir, bu ijtimoiy ma'suliyatni rivojlantirishdir. Masalan mashxur pedagog Anton Semenovich Makarenko o'quvchilarni tarbiyalashda ma'suliyat yuklash yaxshi natija berishini ko'p o'quvchilarda sinovdan o'tkazgan .Bunga misol qilib bir voqeani keltirishimiz mumkin.Bilamizki Makarenko tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlagan va ularni ixtiyoriy mehnatga jalb qilgan.O'quvchilari orasida bir o'g'ri yigit ham tarbiyalanayotgan bo'lган .Bir kuni Makarenko o'sha og'ri yigitni yoniga chaqirib o'quvchilarni birgalikda ishlab topgan pulini u bankdan olib kelib berishini aytgan .Shunda yigit axir men o'g'ri bo'lsam qanday menga ishonasiz, men u pullarni olib qochib ketsamchi-deganida.Makarenko men senga ishonaman deb javob beradi.O'g'ri yigit pullarni olib kelayotganda unga bezori bolalar xujum qilishadi lekin u kaltaklansa ham pularni ziyon yetkazmay olib keladi. Makarenko "Har bir bola qo'mondon rolida ham, oddiy askar rolida ham haqiqiy mas'uliyat tizimiga kiritilishi kerak" deb hisoblagan. Makarenkoning so'zlariga ko'ra, guruh sardori atigi olti oyga saylangan va bir marotaba ushbu lavozimni egallashi mumkin edi, har bir bola o'zini yetakchi sifatida sinab ko'rish

imkoniyatiga ega edi. Ushbu tizim bo'limgan joylarda, deydi Makarenko, irodasiz va hayotga moslashmagan odamlar ko'pincha o'sadi.

**XULOSA:**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kichik maktab yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarning yuzaga kelishi va ma'suliyatni shakllantirish davri deb hisoblash mumkin. Ma'suliyatni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. SHuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish lozimki, unda bolaga biron bir ma'sul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning oldida ma'sul shaxs ekanligini his qilishiga imkon yaratib berish lozimdir. Ana shu his bolada keyinchalik ma'suliyatli bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltirishda asosiy rol o'ynashi mumkin. Ma'suliyat hissi inson tarbiyasidagi eng muhim omillardan biridir. Ma'suliyatni esa yoshligidan shakllantirish kerak ,toki bola ma'suliyat nima ekanliginini ,masuliyatsizlik qanday oqibatlarga olib kelishi mungkinagini bilishi kerak..

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Makarenko A.S. Bolalar mehnat koloniyasining tajribasi // Ped. sit.: 8 jildda - M., 1983.-T.
2. Z.T.Nishonova, N.G. Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazrova Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya-T.2017
9. Uktamovna, M. M. (2023). Enhancing Vocabulary Acquisition in B2 Level Students through Diverse Exercise Modalities and Reading Activities. Genius Repository, 26, 73-74.
10. Mamadjanova, M. (2023, December). SEMANTIC CLASSIFICATION OF EPITHETS IN THE ENGLISH LANGUAGE. In Fergana state university conference (pp. 88-88).
11. Uktamovna, M. M. (2023). Syntactic-Structural Classification of Epithet in the English Language". American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750), 1(10), 60-62.
12. Uktamovna, M. M., & Oybekovna, Z. F. (2023). UNRAVELING THE CONNOTATIVE AND DENOTATIVE MEANINGS OF WORDS. Научный Фокус, 1(8), 640-642.
13. Mamadjanova, M. U., & qizi Xomidova, M. S. (2023). GRAMMAR TRANSLATION METHOD: EXPLORING ADVANTAGES AND DISAVANTAGES. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 309-311.
14. Mamadjanova, M. U., & qizi Malikova, G. X. (2023). HOW ENGLISH BECOME GLOBAL LANGUAGE: HISTORICAL OVERVIEW. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 888-892.
15. Uktamovna, M. M. (2023, October). EPITET TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-132).